

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR – SHAXSGA YO’NALTIRILGAN TA’LIM SIFATIDA

M.M.Jabborov

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

maksudteacher@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim muassasalarida pedagogik texnologiyalarning shaxsga yo’naltirilgan ta’limdagi o’rni, uning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль педагогических технологий в личностно-ориентированном обучении в общеобразовательных учреждениях, ее роль в повышении эффективности образования.

Annotation: This article discusses the role of pedagogical technologies in student-centered learning in educational institutions, its role in improving the effectiveness of education.

Kalit so’zlar: shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, pedagogik texnologiya, texnologik bilimlar, ijtimoiy hodisa, ta’lim berish modeli

Ключевые слова: личностно-ориентированное образование, педагогическая технология, технологическое знание, социальное явление, образовательная модель.

Key words: student-centered education, pedagogical technology, technological knowledge, social phenomenon, educational model.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri – zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash bo'lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardandir. Ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda, asosan, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim - inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan-avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unga pedagogik,

psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlardan yondoshish mumkin. Pedagogik texnologiyaning eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rifini quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi: «Pedagogik texnologiya-barkamol insonni shakllantirish faoliyatidir».

Pedagogik texnologiyaning keng ko'lamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi ta'riflarini keltirishimiz mumkin:

“Pedagogik texnologiya axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liklarni ochish yangi axborotlar yaratishga o'rgatishdan iborat”. [1, 279]

Pedagogik texnologiya-ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir. Shuningdek, pedagogik texnologiya - bu o'z oldiga ta'lim shakllarini, optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat. Pedagogik texnologiya insonni mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Uni amalga oshirish tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash va umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarni xos bo'lgan belgilarga esa bo'lgan belgilarga ega bo'lib, bu qonuniyatlarni insoniyat tomonidan o'rganish davom etmoqda. Pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotning mahsuli. [2, 316]

Pedagogik texnologiya ijtimoiy hodisa sifatida ta'lim-tarbiya masalalari bilan bog'liq motivlar: ehtiyoj, talab, manfaat, qiziqish, maqsadlardan kelib chiqadi va ularni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Jamiyat har bir a'zosining bilim darajasi ortib borishi shu jamiyat va davlat rivojining eng asosiy shartlaridan

hisoblanadi. Bunga pedagogik texnologiya shaxs, oila, jamiyat, davlat hayotida muhim ahamiyatga ega **ijtimoiy hodisa** ekanligi ko'rinadi. [3, 208]

Pedagogik amaliyotda yangi yo'l va vositalarni jadal tatbiq etilayotganini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi ta'lim shakl va faol usullar o'rniga bo'linmas ta'limiy texnologiyalar zarur. Lekin ta'limiy jarayonni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi bajara olishi mumkin.

Texnologik bilimlar tizimi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:

- tushunchaga oid qism – texnologiyalashning murakkabroq bo'lgan toifa va qoidalarini o'rganishga yo'l;
- ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismi va ularni harakatga keltiruvchi tuzilma – ta'lim jarayonini loyihalashga yo'l;
- ta'limiy texnologiyalarning konseptual asoslari – har qanday ta'lim texnologiyasi negiziga pedagogik va psixologik fanlar yutug'ida ifodalangan pedagogik g'oya;
- maqsadni belgilash – agar pedagogik vazifalar aniqlangan bo'lsa, o'quv faoliyatining yakuniy natijalari bir ma'noda ifodalangan bo'lsa, ta'lim jarayonini loyihalashtirish mumkin;
- ta'lim berish modeli – maqbul yo'llar bilan, usul, shakl va vositalar yordamida ko'zlangan maqsadga erishish kafolati;
- boshqaruvning yo'l va vositalar yig'indisi: bashoratlash, loyihalash, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek, tezkor o'zgartirish to'g'risida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta'lim jarayonini uzluksiz va muntazam kuzatish, ya'ni monitoring.

Pedagog xodimlar har qaysi darsini ta'lim berishning texnologiyalashgan, loyihalashtirilgan va albatta natija beradigan tizimga solishdan boshlagani ma'qul. Chunki pedagoglarning **maqsadi umumiy** – barkamol shaxsni tarbiyalash, har tomonlama yetuk kadrlarni voyaga yetkazish. Ammo, ushbu maqsadga erishishda barcha turli xil yondashadi: kimdir darsning to'liq ssenariysini yaratadi, kimdir darsining har daqiqasini oldindan bashoratlab, loyihalashtiradi. Kimdir esa

maqsadga qisqa yo'l bilan – turli shakl va vositalarni bir varakayiga qo'llash orqali erishadi.

Ushbu yo'lni tanlashda quyidagi tavsiyalarni bermoqchimiz:

1. Har bir tanlangan yo'l va vositalar o'qituvchi-texnolog tomonidan, u intilayotgan, yakuniy natijaga erishishga ko'rinarli qo'shgan hissassi tomoni bilan baholanishi zarur. Ya'ni ayrim pedagogik tushunchalar murakkablik qilyaptimi, demak, tajribasi bo'lgan ustozlardan doim maslahatlashung, o'z bahoingizni oling!

2. Faqat kitoblar tajribamni orttiradi, degan xitob Siz uchun emas, pedagogik mahoratda muomala, darslarni kuzatish, pedagogik mahoratga ega insonlar darslari, malaka oshirish kabilar muhim ekanini unutmang!

3. Biz doim yangi texnologiyalarning yutug'iga, ularning afzalligiga qarab o'rganganmiz. Aslida ulalning ham salbiy tomonlari bo'lishi mumkinligini o'ylang va darsingiz jarayonida qo'llamoqchi bo'lgan metodlarning eng maqbulini tanlang! Bunda eng avval pedagogik texnologiyalar turlari haqida ko'proq bilimga ega bo'lish zarur!

4. Nihoyat, o'qituvchi vaziyat taqozo etishi mumkin bo'lgan holatlarni inobatga olishi kerak, shaxsiy yoki talabalarning xususiyatlari bilan yuzma-yuz kelish holatlarini doimo e'tiboridan chetda qoldirmasligi zarur. Bu esa Siz psixologiyadan yaxshi xabardor bo'ling, demakdir!

Adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016. – 279b.

2. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – СПб.: Питер. Серия "Учебное пособие", 2004–316 с.

3. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X. To'xtaxo'jaeva tahriri ostida. – T.: "Moliya-iqtisod", 2008. – 208 b.